E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

O’zbekistonda ekologik diplomatiyaning yangi bosqichi

Tleumuratova Maxida
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Xalqaro munosabatlar fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston ekologik diplomatiyasida 2017-yildan hozirgi davrgacha bo’lgan o’zgarishlar tahlil qilingan. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari va xalqaro hamkorlikda amalga oshirilgan e’tiborga molik ishlar haqida fikr yuritilgan. Asosan transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo’yicha yuzaga kelgan muammolar va Orol muammosini hal qilish borasidagi taklif hamda tashabbuslarga to’xtalib o’tilgan.
Kalit so’zlar: Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, transchegaraviy suv resurslari, Orol madaniyati sammiti.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan boshlab, xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida xalqaro ekologik munosabatlarning muhim yo‘nalishlari va huquqiy asoslarini takomillashtirishga e’tibor qaratib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xalqaro-huquqiy shartnoma va konvensiyalarni milliy qonunchilikka tatbiq etish asosiy masalalardan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosat strategiyasi bilan belgilanadi.

Hozirgi informatsiyon va sanoat rivojlanishi asrida ekologik muammolarning borgan sari kuchayib borayotgani, tabiat hamda aholiga katta zarar yetkazayotgani har qanday davlatning strategik masalalari turkumiga kirib bormoqda. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ham ekologik masalalarni qamrab oladi.[1] Shu jumladan, davlatimiz rahbarining 2019-yil 30-oktabrdagi tegishli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi bugungi kunda mamlakatimizning ekologiya sohasidagi asosiy hujjatlaridan biri hisoblanadi.[2] Hujjatga muvofiq, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat funksiyalarini amalga oshirishda strategik rejalashtirishning kompleks yondashuvi va tamoyillari joriy etilib, atrof-muhitni muhofaza qilish organiga belgilangan vazifalarni samarali bajarish uchun zarur vakolatlar berildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida 30 dan ortiq qonun hujjatlari va 200 ga yaqin qonunosti hujjatlari mavjud.[3] Bu mamlakatimizning ekologik qonunchiligida tegishli faoliyat, davlat organlari tizimini tartibga solish, ular o‘rtasida funksiya va vakolatlarni taqsimlash, biologik xilma-xillikni saqlash va axborotdan foydalanish, iqtisodiy mexanizmlarni qo‘llash kabi ko‘plab masalalar qamrab olinganini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Bundan tashqari, qator qonun hujjatlarida fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qiluvchi va ekologik demokratiyani rivojlantiruvchi normalar joriy etildi. O‘zbekiston Ekologik partiyasining 2021-yilgi Prezident saylovi tarixida ilk bor saylovda ishtirok etishi mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish kelajakdagi rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilganidan dalolatdir.

Shuni ta’kidlash joizki, O’zbekiston ekologiyasida mavjud muammolar transchegaraviy harakterga ega bo’lganligi nafaqat davlat hududida olib borilayotgan chora-tadbirlarni, balki bu sohada mintaqaviy hamkorlikka extiyoj borligini ko’rsatadi.

Aynan shunday hamkorlikni talab qiluvchi ekologik muammolardan biri -transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish Markaziy Osiyo davlatlarining o’zaro munosabatlarida kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Qo‘shnilar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va mintaqada nizolar ehtimolini kamaytirish yo‘lini tutgan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning president etib saylanishi bilan Markaziy Osiyoda ekologik diplomatiya rivojida sifat jihatidan amalda yangi bosqich boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Markaziy Osiyoni mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb belgiladi va mintaqada gidroelektr stansiyalarini qurishda Markaziy Osiyoning barcha hududlari manfaatlarini hisobga olish muhimligiga e’tibor qaratib kelmoqda. Shu bilan birga, u suv energetikasi sohasida konstruktiv hamkorlikka tayyor ekanini namoyish etib, daryoning yuqori oqimidagi mamlakatlarda gidroelektr stansiyalari qurilishini birgalikda amalga oshirishni yoqlab chiqdi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qirg‘izistonga tashrif buyurganida, Qambarota 1-GESni birgalikda qurish har ikkala taraf uchun muhimligini va buni foydali bo’lishi uchun oqilona yo’l tutib birgalikda amalga oshirish lozimligini ta’kidladi. Mazkur fikrning tasdig’i o’laroq 2023-yil 6-yanvar kuni umumiy quvvati 1860 mvt bo‘lgan qambarota 1-GES qurilishi bo‘yicha yo‘l xaritasi imzolandi.[4]

Erishilgan kelishuvlar Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil mart oyida Bishkekka so‘nggi tashrifi chog‘ida ham yana bir bora tasdiqlandi. Rog‘un GESiga kelsak, O‘zbekistonning ilgarigi yondashuvi o’zgardi. 2018-yilda ikki davlat prezidentlari birgalikda “Markaziy Osiyo uchun suv-energetika muammolarini hal qilish uchun mavjud va qurilayotgan gidroenergetika inshootlariga ega bo‘lishi muhim ekanligini ta’kidladilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida umume’tirof etilgan xalqaro standartlar asosida suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish zarurligi haqidagi pozitsiyaga amal qiladi deb aytish mumkin.

Sayyoramizning yana bir dolzarb muammolaridan biri bo’lib qolayotgan Orol fojiasi bo’yicha jahon hamjamiyatining sa’y-harakatlarini O’zbekiston va BMT hamkorligi doirasida kuzatishimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi Orol fojiasi ko‘lamini xaritada yaqqol ko‘rsatib, uni bartaraf etishda jahon hamjamiyatini birlashishga chaqirdi. Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash muammolari haqida gapirar ekan, mintaqaning umumiy suv resurslaridan birgalikda foydalanish kabi muhim masalani e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmasligini ta’kidladi.[5]

2017-yilning yanvar oyida Orolbo‘yi mintaqasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish Davlat dasturi tasdiqlangan bo‘lib, uni amalga oshirish uchun 8 trilliondan so’mdan ortiq miqdordagi mablag’ o’zlashtirilishi ko‘zda tutilgan edi. Bu boradagi investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish chora-tadbirlariga ham alohida e’tibor qaratildi.

2018 yilda BMT shafeligida tashkil etilgan Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi “Trast” fondi mablag‘lari hisobidan qiymati 14 mln AQSh dollaridan ortiq loyihalar amalga oshirildi.

2018-yilning 7-8 iyun kunlari Toshkent shahrida parlament deputatlari, vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida “Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha birgalikdagi harakatlar: yangi yondashuvlar, innovatsion yechimlar, investitsiyalar” mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Unda Markaziy Osiyo davlatlari, O‘zbekiston davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mutaxassislari va ekspertlari, 20 dan ortiq davlatdan 100 nafar yetakchi ekspertlar, BMT, Jahon banki ekspertlari, xorijiy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar, yetakchi moliya institutlari, Orol dengizi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash loyihalariga sarmoya kiritishdan manfaatdor xorijiy kompaniyalar vakillari shuningdek, xorijiy va milliy nodavlat notijorat tashkilotlari, biznes va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.[6]

2020-yilning 23-sentabrda davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nutq so’zlab, unda global iqlim o‘zgarishlari va Orolbo‘yi hududidagi vaziyatga yana bir bora to‘xtalib o‘tdi hamda ushbu hududni ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif

etgan edi. Bu mahsus rezolyutsiya 2021 yilning 18 may kuni BMT Bosh assambleyasi 75-sessiyasining yalpi majlisida bir ovozdan qabul qilingani muammoga qaratilgan e'tiborni yanada kuchayganidan dalolat beradi.[7]

2018-2021 yillar mobaynida dengizning qurigan qismiga respublikaning barcha hududlaridan maxsus texnikalar jalb etilib, yashil qoplamalar barpo etishga kirishildi. Olimlarning ta'kidlashicha, qurigan dengiz hududida barpo etiladigan saksovulzor shamol tezligini sezilarli darajada kamaytiradi va qum ko'chishlarini sezilarli darajada cheklaydi va hududda ekilgan daraxt hamda butalar havoni tozalashga yordam beradi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining noyob hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish maqsadida 3,6 mln gektardan iborat 5 ta yangi tabiiy hududlar tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari xalqaro hamjamiyat e'tiborini Orol muammosiga qarata olishni uddasidan chiqdi. Jumladan, 2022 yil noyabr oyida AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) tomonidan Orol ekotizimni tiklash bo'yicha loyiha – ERAS II ishga tushirildi va unga 1,6 million dollar ajratildi. Bundan tashqari Yaponiyaning OISCA tashkiloti tomonidan 40 ming gektar maydonini ko'kalamzorlashtirish loyihasi boshlandi. Bu borada Islom hamkorlik tashkiloti, Finlandiya va Germaniya davlatlari ham faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston prezidenti Administratsiyasi Ijro etuvchi apparatining Kommunikatsiyalar va axborot siyosati bo'yicha sho'ba mudiri Saida Mirziyoyeva 2023-yil 22−24 mart kunlari BMTning suv resurslari bo'yicha konferensiyasida so'zga chiqib, «Orol madaniyati sammiti» loyihasini taqdim qildi. «San'at, dizayn va madaniyat Orolbo'yidagi muammolardan xabardorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin», — dedi u.[8] Ushbu anjumanda shoir Ibrohim Yusupovning elegiyasidan bir parcha o'qib berdi va u qoraqalpoq tilida yangradi:

Tog'lar cho'kib yerga kirmagan balki,
Yulduzlar ham birdan so'nmagan balki.
Dunyo hech qachonda ko'rmagan balki,
Dengizning bir zumda qurib qolganin….

Shunday qilib, bugun biz to'liq ishonch bilan aytishimiz mumkinki, so'nggi yillar davomida O'zbekiston ekologiya va atrof-muhitni muhofoza qilish doirasida nafaqat milliy qonunchiligimizda, balki xalqaro hamkorlikda ham yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada Markaziy Osiyo davlatlari hamda BMT o'rtasidagi munosabatlar muhim voqealarga boy bo'ldi va barcha sohalarda jadal rivojlanayotganligini yaqqol kuzatish mumkin. Ayniqsa O'zbekiston tomonidan BMT doirasida ilgari surilgan barcha takliflar jahon hamjamiyati tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, farovon taraqqiyotni ta'minlashga salmoqli hissa qo'shmoqda. Mamlakatimiz mavjud ekologik muammolarni bartaraf etishda qo'shni davlatlar va BMT bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish tarafdori ekanligini o'z harakatlari va iontilishlari bilan isbotlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'Zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022 — 2026-Yillarga Mo'Ljallangan Yangi O'Zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi: Vi. Milliy Manfaatlardan Kelib Chiqqan Holda Umumbashariy Muammolarga Yondashish Https://Drive.Google.Com/File/D/1peq_76aejjtfnv_Pd1zeulz8jwfmtmr6/View
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2030-Yilgacha Bo'lgan Davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-Muhitni Muhofaza Qilish Konsepsiyasini Tasdiqlash To'g'risida Https://Lex.Uz/Docs/-4574008
3. ЕЭК ООН Узбекистан Обзоры результативности экологической деятельности Третий обзор Серия обзоров результативности экологической деятельности Выпуск ʊ 52 https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/202010/ECE.CEP_.188.Rus__0.pdf
4. https://minenergy.uz/uz/news/view/2465
5. https://news.un.org/ru/interview/2018/11/1343741
6. https://www.gazeta.uz/oz/2018/06/01/orol/